


XI. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapdi.

Jumladan, 2023-yil 1-iyul holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 24,1 mingtani tashkil etib, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 20,4 mingtani tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar
fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2023- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

15 632



Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

2 025



Oilaviy korxonona

2 348



Xususiy korxonona

20



Aksiyadorlik jamiyati



452

Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


2 980



12,3 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

3 372



13,9 %

Sanoat

1 809



7,5 %

Qurilish


7 078



28,4 %

Savdo

900



3,7 %

Tashish va saqlash

1 266



5,2 %

Yashash va ovqatlanish

398



1,6 %

Axborot va aloqa

470



1,9 %

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

5 926




24,6 %

Boshqa turlar


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, 2023-yil yanvar- iyun oylarida)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (yanvar-iyun oylarida, birlikda)

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning o‘tgan yilga nisbati (foizda)



2023- yil yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar 3 704 soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda 1 383 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 1 485 taga, oilaviy korxonalar 104 taga ko‘paygan

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Tumanlar kesimida

Amudaryo	341
To‘rtko‘l	316
Nukus	295
Beruniy	290
Kegeyli	196
Qo‘ng‘irot	174
Qonliko‘l	159
Ellikqal‘a	156
Chimboy	153
Xo‘jayli	149
Nukus sh.	130
Mo‘ynoq	120
Qorao‘zak	120
Bo‘zotov	100
Shomanay	100
Taxiatosh	95
Taxtako‘pir	86



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura




O‘rmonchilik va yog‘och
tayyorlash

Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va
bu sohalarda xizmat
ko‘rsatish

Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)


Tumanlar kesimida

Nukus sh	613
Amudaryo	322
Beruniy	295
Bo‘zotov	47
Qorao‘zak	157
Kegeyli	115
Qo‘ng‘irot	248
Qonliqo‘l	76
Mo‘ynoq	127
Nukus	91
Taxiatosh	122
Taxtako‘pir	95
To‘rtko‘l	319
Xo‘jayli	196
Chimboy	143
Shomanay	95
Ellikqal‘a	311



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi uch yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalarini sonining o‘shish sur‘ati 107,2 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 13,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,0 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish 100,3 foiz); 5,0 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘shish 90,9 foiz); 2,2 foizini suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘shish 107,0 foiz) va 0,8 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash (o‘shish 78,8 foiz) tashki etgan.



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar 2023- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Tumanlar kesimida

Nukus sh	811
Amudaryo	72
Beruniy	88
Bo'zotov	18
Qorao'zak	47
Kegeyli	54
Qo'ng'iro't	89
Qonliko'l	31
Mo'ynoq	36
Nukus	81
Taxiatosh	55
Taxtako'pir	20
To'rtko'l	140
Xo'jayli	98
Chimboy	40
Shomanay	32
Ellikqal'a	97



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 69,4 foizga oshgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,0 foizga oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 27,3 foiz ulushni va 73,1 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

304


Fuqarolik
obyektlarini qurish

494

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

1 011


Bino va
inshootlar qurish



Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2023 yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

Tumanlar kesimida

Nukus sh	2 036
Amudaryo	590
Beruniy	632
Bo‘zotov	57
Qorao‘zak	138
Kegeyli	189
Qo‘ng‘irot	393
Qonliqo‘l	161
Mo‘ynoq	145
Nukus	151
Taxiatosh	233
Taxtako‘pir	90
To‘rtko‘l	829
Xo‘jayli	395
Chimboy	342
Shomanay	202
Ellikqal‘a	495



Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 100,1 foizi yoki 7,0 mingtasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 65,6 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘shir sur‘ati 97,7 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 24,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘shir sur‘ati 115,7 foizni tashkil etdi;


- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta‘mirlash yo‘nalishida 10,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘shir sur‘ati 120,2 foizni tashkil etdi.



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2023- yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

Tumanlar kesimida

Nukus sh	181
Amudaryo	40
Beruniy	37
Bo‘zotov	1
Qorao‘zak	4
Kegeyli	15
Qo‘ng‘irot	36
Qonliko‘l	4
Mo‘ynoq	2
Nukus	11
Taxiatosh	14
Taxtako‘pir	7
To‘rtko‘l	31
Xo‘jayli	34
Chimboy	18
Shomanay	4
Ellikqal‘a	31




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning – 470 ta yoki 1,9 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

94,3 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘shish sur‘ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,5 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta‘minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 4,0 foizni tashkil etib, o‘shish sur‘ati 50,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta‘minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,7 foizini tashkil etib, o‘shish sur‘ati 80,0 foizni tashkil etdi;




Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

Tumanlar kesimida


Nukus sh	368
Amudaryo	148
Beruniy	97
Bo‘zotov	14
Qorao‘zak	27
Kegeyli	42
Qo‘ng‘irot	109
Qonliko‘l	30
Mo‘ynoq	30
Nukus	13
Taxiatosh	26
Taxtako‘pir	21
To‘rtko‘l	118
Xo‘jayli	52
Chimboy	44
Shomanay	24
Ellikqal‘a	103



2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur‘ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 117,0 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-iyul holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 7,4 foiz ulushini tashkil etdi;


- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 92,6 foiz ulushini tashkil etdi.




Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma‘lumotlar

(2023- yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda)


Yillar kesimida



Yillar kesimida o‘rinish sur‘ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida jamiga nisbatan ulushi



Tumanlar kesimida eng ko‘p kichik biznes subyektlari Nukus shahrida (26,0 foiz), To‘rtko‘l (10,6 foiz), Beruniy (8,5 foiz), Amudaryo (8,3 foiz) va Ellikqal‘a (6,8 foiz) respublikada faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma‘lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar
(2023 yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyekti.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra 2022- yilning mos davriga nisbatan 1 111 taga ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tumanlar kesimida


Nukus sh.	295	Nukus	56
Amudaryo	315	Taxiatosh	81
Beruniy	159	Taxtako‘pir	63
Bo‘zotov	12	To‘rtko‘l	415
Qorao‘zak	25	Xo‘jayli	98
Kegayli	23	Chimboy	23
Qo‘ng‘irot	117	Shomanay	20
Qonliko‘l	106	Ellikqal‘a	190
Mo‘ynoq	27		

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘shish sur‘ati (foizda)



Mas’uliyati cheklangan jamiyati - bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 20,4 mingta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 15,6 mingtasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Tumanlar kesimida

Nukus sh.	4 441	Nukus	630
Amudaryo	1 239	Taxiatosh	403
Beruniy	1 333	Taxtako‘pir	219
Bo‘zotov	288	To‘rtko‘l	1 512
Qorao‘zak	495	Xo‘jayli	880
Kegayli	607	Chimboy	722
Qo‘ng‘irot	933	Shomanay	349
Qonliko‘l	296	Ellikqal‘a	835
Mo‘ynoq	450		

Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar
2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘shish sur‘ati (foizda)



Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 77,1 foizni tashkil etdi.


Tumanlar kesimida

Nukus sh.	525	Nukus	20
Amudaryo	111	Taxiatosh	108
Beruniy	206	Taxtako‘pir	69
Bo‘zotov	9	To‘rtko‘l	214
Qorao‘zak	49	Xo‘jayli	96
Kegayli	55	Chimboy	83
Qo‘ng‘irot	199	Shomanay	140
Qonliko‘l	81	Ellikqal‘a	341
Mo‘ynoq	42		

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot 2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra,

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘shish sur‘ati (foizda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 135 dan 158 taga yoki 117,0 foizga oshgan.

Tumanlar kesimida

Nukus sh.	40	Nukus	8
Amudaryo	6	Taxiatosh	9
Beruniy	6	Taxtako‘pir	2
Bo‘zotov	6	To‘rtko‘l	7
Qorao‘zak	6	Xo‘jayli	5
Kegayli	8	Chimboy	2
Qo‘ng‘irot	9	Shomanay	2
Qonliko‘l	8	Ellikqal‘a	1
Mo‘ynoq	33		

**Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma‘lumot**
2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda



O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e‘tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 83 tasi qo‘shma korxonalar, 75 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.



Xitoy Xalq Respublikasi



Rossiya Federatsiyasi



Qozog‘iston Respublikasi



Turkiya Respublikasi



Janubiy Koreya



Boshqa davlatlar

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni**
(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo‘shma korxonona	xorijiy korxonona
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	158	83	75
Nukus sh.	40	19	21
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	6	3	3
Beruniy	6	2	4
Bo‘zatov	6	6	
Qorao‘zak	6	4	2
Kegeyli	8	6	2
Qo‘ng‘irot	9	7	2
Qonliko‘l	8	4	4
Mo‘ynoq	33	18	15
Nukus	8	2	6
Taxiatosh	9	3	6
Taxtako‘pir	2	1	1
To‘rtko‘l	7	4	3
Xo‘jayli	5	3	2
Chimboy	2	1	1
Shumanay	2		2
Ellikqal‘a	1		1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Nukus shahrida 40 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 25,3 %), Mo‘ynoq 33 ta (20,9 %), Qo‘ng‘irot va Taxiatosh tumanlarida 9 ta (5,7 %), Kegeyli, Qonliko‘l va Nukus tumanlarida 8 ta (5,1 %), To‘rtko‘l tumanida 7 ta (4,4 %), Beruniy, Bo‘zatov, Amudaryo, Qorao‘zak tumanlarida 6 ta (3,8 %), ni tashkil etadi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrída mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestrída yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.